

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Kimsanova Adiba Jo‘rayevna

Farg‘ona viloyati Beshariq tumani
9- davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti
o‘rta guruh tarbiyachisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari, samarali usullari va ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. O‘yin faoliyati, muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob metodlari hamda ijodiy topshiriqlarning bolalar tafakkuri rivojiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mustaqil fikrlash, maktabgacha ta’lim, o‘yin metodlari, ijodiy tafakkur, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и психологические основы формирования самостоятельного мышления у детей дошкольного возраста. Анализируются эффективные методы развития мышления через игровую деятельность, проблемные ситуации, вопросы и творческие задания. Подчёркивается роль воспитателя в организации развивающей образовательной среды.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, дошкольное образование, игровые методы, творческое мышление, педагогический подход.

Annotation. This article examines the pedagogical and psychological foundations of developing independent thinking in preschool children. It analyzes effective methods such as play-based learning, problem-solving situations, questioning techniques, and creative tasks. The role of the teacher in creating a supportive learning environment is emphasized.

Keywords: independent thinking, preschool education, play-based methods, creative thinking, pedagogical approach.

Kirish. Maktabgacha yosh - bu bola hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda uning xarakteri, ijtimoiy qobiliyatlari, psixikasi, nutqi va axloqiy xatti-harakatlari shakllanadi. Mazkur yoshdagi bolalarning mustaqil harakat qilishi, atrof-muhitga nisbatan o‘z fikrini bildirish olishi, o‘z ehtiyojlarini mustaqil ravishda ifodalashi va qondirish olishi, ularning keyingi rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mustaqillik — bolaning o‘ziga ishonchi, tashabbus ko‘rsatishi, qiyinchiliklarni yengishga tayyorligi hamda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga mustaqillikni singdirish orqali ularda hayotiy ko‘nikmalar, o‘zini boshqarish, xatti-harakatlariga nazorat o‘rnatish, muammolarni yechishga harakat qilish kabi qobiliyatlar shakllanadi. Mustaqillikka erishgan bola jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladi, o‘z fikrini bildirishdan cho‘chimaydi va o‘qishga, hayotga ongli munosabatda bo‘ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlay oladigan bola atrof-muhitni anglaydi, qaror qabul qilishga o‘rganadi va o‘z fikrini erkin ifodalay oladi. Shu bois, maktabgacha yosh davridayoq bolalarning tafakkurini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur [1.6].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashi bugungi kundagi eng muhim talablardan biridir. Bola o‘zi mustaqil fikrlay olsagina u kelajakda o‘z o‘rnini hech qiynalmasdan topa oladi. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burchagidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo‘lib kamol topishida adabiyot va san‘atning roli beqiyosdir. Shu sababdan ham maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, kelajakda ularni yetuk, barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga, yurtimizni yanada ravnaq toptirishiga zamin yaratadi[2.160].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash tushunchasi

Mustaqil fikrlash — bu bolaning berilgan tayyor bilimlarni takrorlash emas, balki kuzatish, taqqoslash, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarga o‘z munosabatini bildirish qobiliyatidir¹. Psixologlarning ta‘kidlashicha, 3–7 yosh oralig‘i tafakkurning faol shakllanish bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda mustaqil fikrlash asoslari yaratiladi[3.44].

Mustaqil fikrlashni shakllantirish usullari quyidagilardan iborat:

1. O‘yin faoliyati orqali rivojlantirish. O‘yin — maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. Didaktik, rol va ijodiy o‘yinlar bolalarda tahlil qilish, vaziyatni baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[4.78].

2. Muammoli vaziyatlar yaratish. Bolaga tayyor javob berish o‘rniga, muammoli savollar berish orqali uni fikrlashga undash muhim. Masalan: “Agar shunday bo‘lsa, nima bo‘lardi?” kabi savollar bolaning mustaqil mulohaza yuritishiga yordam beradi.

3. Savol-javob va suhbat metodi. Ochiq savollar asosida tashkil etilgan suhbatlar bolalarda erkin fikrlash, o‘z qarashlarini asoslash va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi[4.80].

4. Ijodiy topshiriqlardan foydalanish. Rasm chizish, ertak tuzish, hikoya davom ettirish kabi ijodiy faoliyat turlari bolaning tasavvuri va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Bolalarning mustaqil fikrlash faolligini tahlil qilganda ular tomonidan mashg‘ulotlarda har xil topshiriqlar bajarish nazarda tutiladi, ularning shartlarida, mohiyati, tuzilishi, shakllari va shaxsning anglashuv, tushunuv imkoniyatlarida kuzatiladi. Mashg‘ulotlarda berilayotgan oddiygina topshiriq yechimi topish uchun vositalar qidirish ijod, izlanish va fikrlashning mustahkam negizini tashkil qiladi. Bolalarni mustaqillikka o‘rgatishning asosiy yo‘llari — bu ularga imkoniyat yaratish, ishonch bildirish, kundalik hayotdagi oddiy vazifalarni o‘zlari bajarishiga sharoit tug‘dirish, tanlov qilishga yo‘naltirish, harakatlarining oqibatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishiga imkon berishdir. Tarbiyachining roli bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. U bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatma bermasdan, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, maslahat beradi, lekin harakatni bola o‘zi bajarishiga imkon yaratadi. Bu usul orqali bola tajriba orttiradi, xatolardan saboq oladi, keyingi safar to‘g‘ri yo‘l tanlashni o‘rganadi[5.98].

Bolalarning mustaqilligi ularda faqatgina hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirmasdan, balki shaxsiy xususiyatlarning (mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik, muloqotchanlik, ijtimoiy faollik) rivojlanishiga ham xizmat qiladi[6.17].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayonni talab etadi. O‘yin, muammoli

vaziyatlar va ijodiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachining kasbiy mahorati va innovatsion yondashuvi ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova B.M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish uslubiyoti. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
3. G'afforova T. Bolalar tafakkurini rivojlantirish asoslari. – Toshkent, 2018.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka. – Moskva, 2005.
5. Elkonin D.B. Igra i psixicheskoye razvitiye. – Moskva, 1999.
6. Xodjayev B. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2020.